



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 20-fevral, № 37 (8660)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ROSSIYA FEDERATSIYASI DELEGATSIYASINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-fevral kuni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri, Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo qo'shma komissiya hamraisi Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Muzokaralar avvalida Hukumat Raisi o'rinbosari Denis Manturov davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 5 — 7-oktabr kunlari Rossiyaga rasmiy tashrifi yakunida savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha erishilgan kelishuvlar va qabul qilingan bitimlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi o'tgan yil yakunlariga ko'ra 6,6 foizga oshgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Sanoat, energetika, transport, metallurgiya, kimyo, farmatsevtika va boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda bo'lib o'tgan Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari, hududlar, ta'lim va tibbiyot forumlarining samarali natijalari yuksak baholandi.

O'zaro savdoning o'sish sur'atlarini davom ettirish, kooperatsiya loyihalarini, shu jumladan, joriy yilning aprel oyida Toshkent shahrida uchinchi bor o'tkaziladigan "Innoprom. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi negizida yanada ilgari surish muhimligiga alohida e'tibor qaratildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

HUDUDLARDAGI ISHGA SOLINMAGAN IMKONIYATLAR TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-fevral kuni hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, past quvvatda ishlayotgan korxonalarni qo'llab-quvvatlashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda shu yil yanvarda makroiqtisodiy barqarorlik tahlili bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida topshiriq berilgan edi. Unga muvofiq hududlarda ishga solinmagan qo'shimcha imkoniyatlar, tadbirkorlarning muammo va takliflari o'rganildi.

Masalan, Qashqadaryo viloyatidagi Mirishkor kanaliga qo'shimcha nasos va lotoklar o'rnatish orqali Qarshi tumanida 600 gektar yerni o'zlashtirish mumkin. Bu kastor loyisiya yetishtirib, uning moyini ishlab chiqarish, 1 ming 400 kishining bandligini ta'minlash imkonini beradi.

Ayrim sanoat zonalarida infratuzilma quvvatini yaxshilash zarur. Shu maqsadda joriy yilda budjettan 1,5 trillion so'm ajratilishi belgilangan. Buning natijasida mazkur zonalarining jozibadorligi oshib, korxonalar faoliyati kengayadi va ish o'rinlari ko'payadi.

Sanoat korxonalariga yaqin bo'sh maydonlarda quyosh panellari

o'rnatib, ularga qo'shimcha energiya yetkazib berish hamda tizimdagi yuklarni yengillatish imkoniyati bo'lar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari bilan taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlari korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir qilgan. Masalan, tekstil uchun bo'yocq importida bojxona imtiyozi qo'llanilgani hisobiga trikotaj mato, ko'ylak, kostyum-shim tannarxi arzonlashgan. Taqdimotda ushbu imtiyozlar muddatini uzaytirish orqali erishilgan natijalarni mustahkamlash maqsadga muvofiq qayd etildi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, tegishli me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Mutasaddilarga barcha 208 ta tuman va shaharning o'sish nuqtalari'ni aniqlash, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan loyihalar tayyorlash vazifasi qo'yildi.

ATROF-MUHITNI ASRASH VA CHIQINDILARNI BOSHQARISHGA OID LOYIHALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ishlar hamda kelgusi rejalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Ma'lumki, joriy yilning 12 — 17-fevral kunlari Samarqand shahrida BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi tomonlar konferensiyasining 14-yig'ilishi (COP-14) bo'lib o'tdi. Unda 130 dan ortiq davlatlardan 2 mingga yaqin ishtirokchilar qatnashdi.

Tadbir yakunlari bo'yicha Konvensiyaga a'zo davlatlar tomonidan ijroga qaratilishi uchun 2024 — 2032-yillarga mo'ljallangan Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlari bo'yicha Samarqand strategik rejasi tasdiqlandi. Ekologik bog'liqlik bo'yicha global hamkorlik (GPEC) tashabbusi ishga tushirildi.

O'zbekiston BMT konvensiyasiga 2024 — 2026-yillar uchun prezident sifatida saylandi. Toshkent shahrida Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN)ning Markaziy Osiyodagi ilk vakolatxonasi ochildi. Shuningdek, BMT Atrof-muhit dasturining O'zbekistonda vakolatxonasini ochish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Jahon banki bilan hamkorlikda Markaziy Osiyoda 6 ta transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududni barpo etishga qaratilgan loyiha amalga oshirishga kelishildi. Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida qator hujjatlar imzolandi.

Davlatimiz rahbari bu sohada hamkorlikni davom ettirib, O'zbekistonning harakatlar rejasini va yangi grant loyihalarini ishlab chiqish, xalqaro ekologiya tashkilotlari va konvensiya bosh qarorgohida soha xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda "O'zbekistonda barqaror o'rmon landshaftlarini tiklash" loyihasi haqida ham axborot berildi.

Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi ushbu loyiha umumiy qiymati 205 million dollardan ziyod bo'lib, 6 yil davomida amalga oshiriladi. Bu mablag o'rmonlar hududini kengaytirish, o'rmon xo'jaliklari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, barqaror boshqaruvni joriy etish, ekturizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi maqsadlarga yo'naltiriladi.

Xususan, o'rmonlarni tiklash va muhofaza qilishda innovatsion boshqaruv tizimi hamda axborot texnologiyalari joriy qilinadi. Degradatsiyaga uchragan o'rmon yerlari tiklanadi. Chegaradosh hududlardagi landshaftni tiklash bo'yicha qo'shni davlatlar bilan hamkorlik rivojlantiriladi.

Bularning natijasida, jumladan,

175 ming gektar o'rmonlar va 38 ming gektar yaylovlarni qayta tiklash, 19 ming gektarda agroo'rmon va 5 ming gektarda sanoatboq o'rmonlar barpo etish, 63 kilometr eko-yo'laklar tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Joriy yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi. Taqdimotda mazkur Farmon ijrosi doirasida qilinayotgan ishlar haqida ham axborot berildi.

Yurtimizda yiliga o'rtacha 6,8 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. So'nggi yillarda sanitar tozalash xizmati bilan qamrab olingan mahallalar soni 90 foizdan oshdi. Lekin chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori emas. Hozirda bunday korxonalar 313 ta xolos.

Prezident Farmonida bunday faoliyatni yanada rag'batlantirish choralari belgilangan. Jumladan, 2024-yil 1-iyundan boshlab maishiy chiqindilarni tarkibidagi ikkilamchi xomashyoni realizatsiya qilish faqat birga orqali amalga oshiriladi. Chiqindilarni "qayta ishlanadigan", "qayta ishlanmaydigan" va "oziq-ovqat" toifalariga ajratgan holda yig'ish tashkil etiladi. Chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash sohasida xususiy sheriklik rivojlantiriladi.

Chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlaganlik uchun jarima miqdorini oshirish, chiqindi tashlab ketilgan joyni tozalash va olib chiqib ketish majburiyatini belgilash choralari kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, taqdimotda maishiy chiqindi poligonlarini optimizatsiya qilish, chiqindilardan mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Xususan, chiqindi poligonlarini investitsiyalar kiritishga jozibador qilish uchun ularning bufer hududlariga maxsus iqtisodiy zonalar rejimini joriy etish, chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi hamda organik usulda o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Ushbu yangi tizim bo'yicha birinchi pilot loyiha Andijon viloyatida amalga oshiriladi.

Jumladan, Andijon tumanida 13 million dollar investitsiya evaziga organik chiqindidan 100 ming tonna o'g'it, Asakada chiqindidan yiliga 2 million kilovatt-soat elektr ishlab chiqaradigan loyihalar ishga tushirilishi rejalashtirilmoqda. Kelgusida ushbu Andijon tajribasi yurtimizning boshqa hududlarida ham tatbiq etiladi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

QONUNLARNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDAGI ROLINI HAMDA NORMA IJODKORLIGI JARAYONI SIFATINI YANADA OSHIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining qabul qilinishi milliy qonunchilikni takomillashtirish, qonun ijodkorligi jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, shuningdek, huquqiy tartibga solish barqarorligini ta'minlash bo'yicha bir qator vazifalarni kun tartibiga qo'yilmoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg'unligini

ta'minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish bo'yicha maqsadiga erishish, shuningdek, qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini yanada oshirish, shu jumladan, ulardagi huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish va havoalaki normalarni amalga oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda huquqni qo'llash amaliyotining bir xilligini ta'minlash maqsadida:

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

BUYUK TURKMAN SHOIRI VA MUTAFAKKIRI MAXTUMQULI FIROG'YI TAVALLUDINING 300-YILLIGINI KENG NISHONLASH TO'G'RSIDA

Turkman xalqining ulug' farzandi Maxtumquli Firog'iy nafaqat turkiy xalqlar, ayni paytda jahon adabiyoti va madaniyati tarixida alohida o'rin egallagan atoqli shoir va mutafakkirdir.

Hassos so'z san'atkorining chuqur gumanizm bilan sug'orilgan asarlari mard va matonatlilik, mehnatkash turkman xalqining ezgu qadriyatlarini va oliyanob fazilatlarini tarannum etishi, hamisha xalq bilan hamdard bo'lishga, turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro ahillik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga

qaratilgan mazmun-mohiyati bilan barchamiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun ibrat namunasidir.

Bu yil nufuzli xalqaro tashkilot — UNESCO rahnamoligida Maxtumquli Firog'iy tavalludining 300-yillik qutlug' yubiley sanasi dunyo miqyosida keng nishonlanayotgani ham shoir adabiy merosi jahon so'z san'atining bebaho xazinasiga aylanib, insoniyatning ma'naviy olamini yuksaltirishga xizmat qilib kelayotganidan dalolat beradi.

(Davomi 2-betda).



Senator va hayot

Muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ilgari surildi

Ma'lumki, Oliy Majlis Senati tomonidan respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi hamda joylardagi muammoli masalalar va ularni hal etishda jiro organlari amalga oshirayotgan ishlar doimiy ravishda o'rganib kelinmoqda.

Xususan, kuni kecha Oliy Majlis Senati Kengashining Sirdaryo viloyatida bo'lib o'tgan navbatdagi sayyor majlisida parlament nazorati doirasida o'tkazilgan o'rganish natijalari atroflicha muhokama qilindi.

Majlisni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Qayd etilganidek, Sirdaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

dasturlarini amalga oshirish borasida qator natijalarga erishilgan.

Jumladan, o'tgan yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 5,9 foiz, sanoatda — 7,1, qishloq xo'jaligida — 6,4, xizmatlar ko'rsatishda — 10,9, qurilishda 7,9 foiz o'sgan. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 23,8 mln. so'mni va o'sish sur'ati 3,8 foizni tashkil etgan.



Samimiy muloqotlar sirdaryoliklarni gangi marralar sari ilhomlantirmoqda

16-17-fevral kunlari Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Sirdaryo viloyatining Guliston, Boyovut, Mirzaobod tumanlari hamda Guliston, Shirin va Yangiyer shaharlaridagi sog'liqni saqlash va ta'lim muassasalarini, iqtisodiyot obyektlari hamda mahallalarda bo'lib, aholi vakillari va mahalliy Kengashlar deputatlari bilan bevosita muloqotlar o'tkazdi.

Bugun aholi sog'lig'ini saqlash, salomatligini mustahkamlash davlatimizning ijtimoiy yo'nalishida amalga oshirayotgan islohotlarining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Bunda, albatta, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va ommaviy sportni rivojlantirish muhim vosita sanaladi. Senat Raisi viloyatga

amaliy tashrifini Guliston shahrida xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan velomarafonda ishtirok etish bilan boshladi.

Mazkur musobaqa shahardagi I. Karimov va Guliston ko'chalari bo'yab tashkil etilib, ishtirokchilar qariyb 3 kilometrlik masofani velosipedda bosib o'tdi.



DOLZARB MASALALAR FAOLLIK BILAN KO'RIB CHIQILDI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyilgan navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalarini ko'rib chiqildi.


Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

Keng qamrovli ishlarga fidoyilik bilan yondashiladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 15-16-fevral kunlari Andijon viloyatiga tashrifi yakunlaridan kelib chiquvchi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Yig'ilishda so'z olgan fraksiya a'zolari oxirgi yetti yilda viloyatda tadbirkorlik va fermerlik faoliyati keng rivojlangani, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha salmoqli ishlar bajarilgani, tashrif davomida belgilab berilgan vazifalar O'zLiDeP va uning parlamentdagi fraksiyasi zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklashini qayd etdilar.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar partiya faollari, deputatlarni



ushbu jarayonlarda faol ishtirok etishga undashi, shu sababli davlatimiz rahbari tashabbuskorligida boshlangan keng qamrovli ishlarga fidoyilik bilan yondashib, amaliy sa'y-harakatlar orqali deputatlar ham viloyatning yangi bosqichdagi taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shishi kerakligi aytib o'tildi.

Yig'ilishda, shuningdek, "Suv

resurslarini boshqarish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to'lovlarni bekor qilish ko'zda tutilmoqda. Ushbu xarajatlarning o'rni suv resurslaridan foydalanilganlik uchun to'lanadigan soliqning 40 foizini yo'naltirish hisobidan qoplanishi belgilanyapti.

Munozaralar davomida loyihada nazarda tutilayotgan yangiliklar fermerlar uchun yanada qulaylik

yaratib, ularning moddiy manfaatdorligi o'tishiga xizmat qilishi e'tirof etildi.

Shu bilan birga, ayrim normalar yuzasidan bir qator savollar o'ttaga tashlandi. Qonun tashabbuskorlari ko'tarilgan masalalar loyihani ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida e'tiborga olinishini ma'lum qildi.

Yangi institut joriy qilinmoqda

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.



